

## TA'LIM JARAYONIDA KREATIVLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Kamalova Malika Sadikovna**

*Buxoro viloyat Buxoro shahar 44-umumta'lim maktab*

*Texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida kreativlik faoliyatini shakllantirish usullari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kasbiy kompetensiya, ta'lim, tarbiya, pedagog, innovatsiya.

O'zbekistonning milliy taraqqiyotga qaratilgan bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etishdir. Binobarin, ozod va obod davlatning fuqarolari komillik sari intilib yashash maqsadini o'z oldiga qo'yadi. Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllanmagan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi sayoz bo'ladi. Bu holat O'zbekistonning bozor munosabatlariga xos shart sharoitlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu metodologik fikr va tadqiqot ishlanmalarimizdan kelib chiqib, shuni aytish lozimki, agar **o'quvchi o'quv - biluv va tarbiyaviy faoliyatning maqsadini bilmasa, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni tushunmaydi hamda qabul qilolmaydi.** Bolaning majburiyati qiziqish asosida bo'lmay, balki majburiy, sun'iy va lozim bo'lsa tazyiq ostida sodir bo'ladi.

O'quvchi mashg'ulotdagi mavzularni shunchaki ko'r-ko'rona "o'rganish"ga yoki ayrim munosabatlarni quruq yodlab olishga majbur bo'ladi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabati "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlar darajasiga ko'tarilmas ekan, o'quvchida ta'lim jarayoniga va bilim, ko'nikma, malakalarini egallashga nisbatan befarqlik vujudga keladi. Olib borayotgan izlanishlarimiz bolaning shaxsiy, sub'ektiv tafakkuri rivojiga asoslangan mustaqil fikrini shakllantirish uchun o'qituvchining **kasbiy faoliyatini texnologiyalashtirish**, pedagogika fanida yechimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligini ta'kidlaydi.

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida qo'yidagi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste'molida keng ishlatilmoqda:

- pedagogik texnologiya,
- ilg`or texnologiya,
- ilg`or tajribalar,
- innovatsiya va innovatika,
- pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya,
- innovatsiya va innovator,
- interaktivlik,
- strategiyalar,
- gumanistik pedagogika,
- liberalizatsiya,
- ta`limda axborot kommunikatsion texnologiyalar,
- tarbiya jarayonida texnologiyalar,

Biz shular orasida «**kreativlik**» tushunchasiga alohida to`xtab o`tmqchimiz. Bu tushuncha so`nggi yillarda ta`lim-tarbiya jarayonlarida ma`lum darajada qo`llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

Ayniqsa bunday izlanishlar **psixologiya sohasida** keng rivojlangan. A.Yu.Agafonov, Yu.Lotman, V.Rudnev G.S.Batishev, M.M.Baxtin, D.B.Bogoyavlenskaya, V.M.Vil`chek,

V.Dil`tey, V.N.Drujinin, D.A.Leont`ev, A.Maslou, A.A.Melik-Pashaev, I.Meyerson, A.Ya.Ponomarev, M.Rorbax, S.L.Rubinshteyn, V.Frankl, R.Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

Yuqorida tilga olingan psixolog olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarini va boshqa da adabiyotlarni analitik tahlil qilar ekanmiz, psixologik nuqtai nazardan kreativlikning mazmun va ma`nosi jihatdan **psixolog olimlar quyidagi xulosalarga kelishganligining** guvohi bo`lamiz.

**Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo`ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.** Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo`lib, uning o`z-o`zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog`liq.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e`tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo`llanilmayotgan bo`lsa ham bu tushunchani ma`lum darajada pedagogik iste`molga kiritishga doir harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik **ijod** bilan bog`liq holda o`rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, **bilim** asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog`liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida qo`yidagi elementlar qabul qilingan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O`z-o`zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda **bilimning** asosini tashkil qilishda asosiy o`rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish qo`yidagi elementlar belgilanishi e`tirof etilgan. Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuitsiya.
3. Dunyoqarash

Tarbiyachining kreativ faoliyati pedagogik mahoratning mazmunida aks etar ekan, pedagogika fanida o`qituvchining pedagogik mahoratining modeli ishlab chiqilgan. Bu model qo`yidagilarda o`zining aksini topgan.

### **O`QITUVCHI MAHORATI**

1. Bilish qobiliyatini boshqarish.
2. Bolalarda ichki his-tuyg`u va qiziqishni shakllantirish
3. Mashg`ulot jarayonini tashkil eta olish.
4. Texnologik mahorat
5. Ishonchga kirish, ishontira olish
6. Nutq mahorati
7. Ergashtira olish
8. Muloqotga kira olish
9. Qalbgga yo`l topa olish
10. Bolaning yoshi,
11. Ichki imkoniyatiga moslashish
12. Do`stona va samiyimiy munosabat

Ko`rinib turganidek, yuqoridagi ishlarda asosan kreativlik masalasi o`qituvchining pedagogik mahorati doirasida tahlil etilgan. Ammo bevosita o`quvchilarining kreativlik faoliyati masalasi alohida tahlil etilmagan.

Ta`limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida bolaning ijodkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta`lim-tarbiya sohasiga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar pedagogika faniga yangi tushunchalarni ham olib kirmoqda.

Shunday tushunchalarning biri «kreativlik» tushunchasidir. Bu tushuncha kuproq psixologiya fanida kengroq rivojlangan. Ammo pedagogika fani bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tadqiq etish talab etiladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bogʻliq. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga boʻlgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, oʻsib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi boʻlsa-da, «kreativlik» tushunchasi tegishli lugʻatlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida etarlicha aniqlanmagan.

Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur anʼanalari inson faktorining hal qiluvchi oʻrnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi.

Ijodkorlik inson fenomenining namoyon boʻladigan yuksak koʻrinishi boʻlishiga qaramasdan, u eng kam oʻrganilgan soha boʻlib, tabiiy qonuniyat sifatida qoraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avval- boshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda oʻrganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni toʻliq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas.

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning oʻziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning maxsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning maʼnaviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlgan kategoriyadir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativlik xozirgi kunda juda ham, ayniqsa Oʻzbekistonda tanqis, kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab koʻpchilik pedagog oʻqituvchilarni oʻz ustida koʻp ishlamasligida deb aytsak boʻladi. Kreativlik uchun qobiliyat tugʻma boʻlishi kerakmi degan savol tugʻiladi. Qaysidir maʼnoda albatta kerak boʻladi. Lekin xammasi mehnatga, oʻz ustida ishlashga borib taqaladi. Kreativ- pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsini qiziqarli oʻta oladigan, yangi metodlar va texnikalardan xabardor va barcha oʻquvchilari uchun sevimli boʻlgan mahoratli ustoz. Uning darslari gʻaroyib gʻoyalarga boy! Shuni unutmaslik kerakki, bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kerativ oʻylagan insongina xammadan ajralib tura oladi. Chunki Kreativlik- bu cheklash mumkin boʻlgan tushuncha emas. Uni rivojlantirish xar birimizning qoʻlimizda. Unutmang, Kreativlik – XXI asr talabi! Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda

**kreativlik** - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur chashmalari” T.: 2013 y
2. Kayumova N. M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y.  
Axborot manbaalari:
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
6. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)
7. [tdpu-intranet.ped](http://tdpu-intranet.ped)